

**OLIY TA’LIM TIZIMLARIDA DASTGOHLI RANGTASVIR O’QUV
TOPSHIRIQLARINING KOMPOZITSIYASIGA DOIR MASALALAR****ABDULLAEV S.A**

K.Behzod nomidagi MRDI “Dastgohli rangtasvir”
kafedrası professori, O‘zBA Akademigi

Annotatsiya: Maqolada Oliy ta’lim tizimlarining dastgohli rangtasvir sohasi ta’limi doirasida talabalar tomonidan bajariladigan o’quv topshiriqlarida kompozitsion tizim yaratish masalalarining muammolari jixatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Oliy ta’lim tizimlari, kompozitsion tizim, rangtasvir san’ati, o’quv topshiriqlari, jahon va o‘zbek rangtasvir san’atining atoqli namoyondalari asarlari.

Аннотация: В статье описаны проблемы создания композиционной системы в произведениях станковой живописи, выполняемых студентами в рамках обучения в области станковой живописи.

Ключевые слова: композиционная система, искусство живописи, учебные задания, произведения известных представителей мировой и узбекской живописи.

KIRISH. Qadimdan kompozitsiya asar g’oyasi bilan uzviy bog’lik xolda tushunib kelingan va ijodkor tasvirlamoqchi bo’lgan g’oya aynan, tasvir, voqea va shaxslarni umumiylikka g’oyaviy-badiiy mazmunini ifoda etuvchi uzviy bir butunlikka birlashtirishdir. Kompozitsiyani faqatgina qalam, mo’yqalam yoki bo’yoqlar vositasida yaratibgina qolmay, balki noan’anaviy lashyolarni biriktirish yo’llari bilan ham kompozitsiya tuzish mumkin. Rassom, kompozitsiya yaratishda tabiat qurshovidagi shakl va ranglardan jonli va jonsiz tabiat ashyolaridan o’z kompozitsiyasini yaratishda foydalanishi mumkin. Kompazitsiya ustida ish boshlash arafasida polotno yuzasini



to'g'ri tashkil etish muammosi paydo bo'ladi. Insonning ko'rish a'zolari va tafakkuri fazoviy mushohada etishga moslangan. Masalan, polotno yuzasiga o'tkazilgan to'g'ri chiziq gorizontall bo'lsa, pastki -yer, tepasi -osmon g'oyasini, vertikal chiziq -tomonlar g'oyasini beradi. Kompozitsiyani tadqiq qilishdan maqsad, asarning tashqi tuzilishini aniqlaydigan badiylik asoslarini topishi, undagi badiy materialni taqsimlash va joylashtirishni aniqlashdan iborat. [1. 111-b.]

Tasvir asarga aylanishida ko'plab qoidalarga bo'ysunadi, ammo asosiysi muallifning voqelikka bo'lgan dunyoqarashi ifodasi mahsuli. E'tiborni tortadigan joyi shundaki, tasviriy san'at durdona va nodir asarlari asosan asar yaratish qoidalaridan xabardor, bilimdon, asar yaratish qoidalarini yaratgan va ilmiy asoslagan rassomlar tarafidan yaratilgan. Har kanday asar, ayniqsa tasviriy sanat asari - bu muallifning mahorat borasidagi barcha imkoniyatlarining maxsuli sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda “Dastgohli rangtasvir” sohasi doirasidagi ta'lim tizimlarida o'quv topshiriqlarini mato yuzasida kompozitsion joylashtirishga mos tizim yaratishning an'anaviy tizim va tajribalarini uyg'unlashtirgan pedagogik faoliyatlarni yo'lga qo'yishga qaratilgan tadqiqot ishlari doirasida bajarilmoqda. Bu borada A.Ikromjonov, S.Abdullayev, S.Raxmetov, M.Nuritdinov, D.Azizov, E.Xaitovlar tomonidan tayyorlangan o'quv va uslubiy qo'llanmalar, darslik va albom-kataloglar bugungi kunda soha doirasidagi ilg'or dasturlar asosida shakllantirilganligini qayd etish joiz.

MUHOKAMA

Kompozitsiyani qurishda kompozitsion markaz va qismlarning muvofiqligi, yorug'lik, shakl o'lchamlari, va asarning ikkinchi darajali qismlarini bo'ysundirish, syujet ustida ishlash, tasvirdagi shaxslarning ichki kechinmalari, bir-biriga bo'gan munosabatlari, holatlari, harakatlari, ma'nodorlik, ohangdorlikni qo'llash kompozitsion ko'rinishining asosiy qismlari bo'lib, kompozitsiyani maqsadli bajarilishiga xizmat



qiladi. Bunday kompozitsiyada jismlar miqdori, vazni, perspektiva, ufq chizig'i, tasvirga ko'zning qarash nuqtasi, suratdagi bo'yoq ranglarning bir-biriga mos kelishi, jismlarning perspektiv qisqarishi, yorug -soyaning taqsimlanishi, holati va boshqalar shular jumlasidandir. [1. 114-b.]

Yaxlitlik, tipiklik, kontrast, kompozitsiyaning barcha ifoda vositalarining g'oyaviy mazmuniga bog'liqligi asar yaratish asosiy qonunlaridan xisoblanadi.

Yaxlitlik konuniyatini asarda ruyobga oshirilishi oqibatida san'at asari ajralmas butunlik sifatida idrok etiladi. Qonuniyatning eng muhim xususiyati kompozitsion yaxlitlik - bunda asar ajralmas birlik sifatida idrok etiladi.

Kompozitsiyadagi bo'linmaslik konstruktiv g'oyani rassom tomonidan topilishi orqali vujudga keladi, bu g'oya o'z navbatida bo'lajak asarning barcha tarkibiy qismlarini bir butun qilib birlashtiradi. Konstruktiv g'oyani topish, kompozitsiya asosiy qismini belgilagandan so'ng, uning tarkibiga kiruvchi mayda qismlarni aniqlashga o'tiladi. Bo'lajak asar kompozitsiyasi qoralamalardagi ish chog'idayok yoritilajak g'oyaning asar fazosidagi holati, konstruktiv yechimini topgandan so'ng asar atributlari o'zaro munosabati belgilanadi.

J. Umarbekovning "Men inson" asariga kompozitsion izlanish variantlarida ko'pburchak asarning konstruktiv g'oyasiga asos bo'lganini ko'rsatadi. Shuning uchun xam asarni kuzatganimizda uni yaxlitlik qonuniga mosligini ko'ramiz. Agar asar mayda qismlardan yig'ilgan bo'lib, konstruktiv g'oyaga asoslanmagan bo'lsa asar yaxlit tarzda emas, ayrim jihatlarigina ko'zga tashlanadi.

Dastgohli rangtasvir asarlarining kompozitsion hususiyatlari muvofiqligida qalamtasvirning o'rni ahamiyatlidir. Ma'lumki, rangtasvir xaqqoniy shaklning rangli tuzilishi qonuniyatlariga asoslanadi. Rangtasvirni rassomlar shunday ta'riflaydi: "Bu 100 foiz qalamtasvir va 100 foiz rangtasvirning bir-biriga chambarchas bog'liqligidir".

Rangtasvirning jozibali chiqishida qalamtasvirning o' rni beqiyosdir. Ammo, mohir rassom qalamdan foydalanmasdan ishni bo'yoqlar bilan tasvirlashi ham mumkin. Ijodkor



izlanish jarayonida rangtasvirni qalamtasvir bilan bevosita bog'liqligini his etadi. Ya'ni, buyumlarning fazoviy joylashuvi, nisbatlarning aniqligi, ranglarning to'g'ri qo'yilishi, ishni bir butunlikda yakunlanishi ko'p jixatdan ijodkorga bog'liq.

Rassom qalamtasvirni puxta o'zlashtirib olgandagina, rangtasvirda ko'zlangan maqsadga erishish mumkin, aks holda noaniq yechilgan qalamtasvir ishini taxlil etsak, ranglar qanchalik jozibali bo'lmasin, baribir bu ishni sifatli deb bo'lmaydi. Shuning uchun turli rassomlik maktablarining tarixiy tajribalari shundan guvoxlik beradiki, ta'limning dastlabki bosqichlarida qalamtasvirni mukammal o'zlashtirish, keyingi jarayonlar uchun zamin yaratadi. [2. 17-b.]

Kompozitsiyani tashkil etuvchi atributlar o'zaro bog'liq va muvofiqligi yaxlitlik qonuniyatining yana bir jihati hisoblanadi. Konstruktiv g'oyadan kelib chikkan holda asar ikkinchi darajali elementlarini o'ziga bo'ysundiruvchi diqqat markazi vujudga keladi. Voqe'likni namoyon bo'lishi o'z navbatida yaxlitlik qonuni orkali idrok etishni talab qiladi. Tabiatda shakl va rang yaxlitlikning talab natijasi sifatida mavjud bulib fazoga mos va o'zaro aloqada namoyon bo'ladi. Ya'ni, asar yuzasida tabiatdagi shakl, jism va jussalarning uzoq yoki yaqinlik nuqtayi nazaridan perspektivali geometrik qiskarishi va xavo perspektivasi kartinada voqelik fazosining chuqur yoki nisbatan sayozligida namoyon bo'ladi.

Mukammallikka erishilgan kompozitsiyada asarning barcha elementlari uyg'unlashgan holga keladiki, ulardan birortasiga yetkazilgan zarar butun asarga ta'sir etadi. Yuqorida kayd etganimizdek, mukammallikka erishilgan asarda tashkil etuvchi barcha elementlar o'zaro mos xolga keltirilganligi bilan ajralib turadi. Yaxlitlik qonuniyati kompozitsiya qismlarini betakrorligini talab etadi.

Bunda shakl, o'lcham, oraliq masofa, siymolari imo-ishoralar kompozitsiyaning barcha ifoda vositalar garmonik munosabati yaratilgan asar muvaffaqiyati garoviga aylanadi va o'z navbatida badiiyyati bois umumiylik va o'ziga xoslikni tashkil etadi. Shu ma'noda R. Axmedovning "Onalik tongi" asarida erta tongda farzandini emizayotgan ayol



va uyqudagi qiz jussasi yagona siluet sifatida yaxlit ko'rinadi. Onaning egilgan jussasi shabadada tebranayotgan teraklar birgalikda asar diagonalini belgilab kompozitsion ifodaligiga xizmat kiladi.

Tipiklik qonuniyati-uch asosiy hususiyati bilan ajralib turadi. Asarda aks ettirilgan xarakterlar va holatlar tipiqligi - bu badiiy obraz yaratish qonuniyatining asosi hisoblanadi va o'ziga xos hususiyat orkali tipiqlik alohidalikdan – umumiylika bo'lgan jarayonlar vositasida erishilishida aks etadi.

Masalan, rassom A.Volkovning "Uzum teruvchi kizlar" asarida qizlar - har biri alohida - alohida xarakter va bir paytning o'zida - yosh o'zbek qizlari siymolari. Volkovning boshka asarlarida xam o'zbeklarga xos tipiklik o'z aksini topgan bo'lishiga qaramasdan har bir obraz o'zgacha.

Rassomlar asarlaridan N.M.Qo'ziboyevning "Chinor", N.Karaxanning "Bug'doyzor", Tansiqboyevning "Katta qurg'on suv omborlari" kabi manzara asarlari ifoda vositalari turli bo'lishiga qaramasdan ko'z oldimizda mazmunli, qiziqarli, go'zal manzara tasvirlangan va shu bilan bir paytda O'zbekiston tabiatining tiniq obrazi gavdalanadi.

Portret sohasida badiiy obraz yaratish namunasini A.Abdullayevning "Nazarali Niyozov" portretini keltirish mumkin. Unda rassom bir qatlam kishilarning umumlashma obrazini yaratadi. Bir shaxsning o'ziga xos obraz yechimi rassom mehnati tufayli umumlashma obrazga aylanadi.

Tasviriy sanat asarida xarakatni ifodalash uning davr jixatidan o'sib borishini tipiklashtirish konuniyatining ikkinchi xususiyati deyish mumkin.

Syujetni harakatda ko'rsatadigan boshqa san'at turlaridan (teatr, kino) farqli o'larok tasviriy san'at syujet rivojini laxzasini ko'rsatadi. Shu ma'noda tasviriy san'atdagi harakat haqida gap ketganda xarakatni xis kilishni aks ettirish tushuniladi. Bu hisga erishish uchun tasvir etilayotgan xolatdan kulminatsion nuqtani ilgab olish zarur. Tipiklashtirish



qonuniyatining bu hususiyati asarda bulmasligi kompozitsiyani qotib qolgan holatiga olib keladi, unda xayotiylikni yo'qotgan.

Harakatgina talqin etilayotgandek bo'ladi. Aynan shuning uchun ham rassomning xayotni xarakatda ko'ra olish qobiliyatiga muhim ahamiyat beriladi.

Bir figurali kompozitsiyalarda yuqoridagi vazifani hal etish ancha mushkul, ko'p figuralida esa personajlarnint turli xolat va xarakatlari kompozitsiyada ochib berilgan ko'pgina manaviy ruhiy aloqalar orqali bog'lanadi.

J. Saidovning "Askiya" asarida tomoshabin faqat tasvirga olingan lahzanigina e'tirof etib kolmasdan asar qahramonlari ko'tarinki ruhiyati, zavq va shavq, xarakterlari turliligi o'ziga xos ifodalarda tasvirlangan bo'lib, voqe'likning chuqur ifodali jarayoni yoritigan.

Yangilikka xoslik tipiklashtirish qonuniyatining uchinchi hususiyati hisoblanadi. Realistik san'at vokelikni fakatgina haqqoniy tasvirlab qolmaydi. U borlikni rassom tomonidan estetik kashf etilishini ko'rsatadi, rassoming oddiy xayotdan olayotgan zavq-shavqini ifodalaydi.

Tasvir etilayotgan voqe'likni estetik o'zlashtirish san'atning o'ziga xos tomonlaridan biri, busiz u o'zining aksi san'atsizlikni keltirib chikaradi. Tabiiyki, badiiy obraz kompozitsion yechimning estetik sifati va yangilanish, rassom kashfiyotini o'zida aks ettiradi. Borliqni estetik kashf etish Mikelandjelo, Titsian, Rembrandt, A. A.Deyneka, U.Tansikbayev, R.Axmedov, B. Jalolov kabilarning asarlarida seziladi. Ularning asarlarida yangilik tematikasida ham, badiiy vositalarida ham, kompozitsion ko'rilmasida ham ko'rinadi. U.Tansiqboyevning "Tabiat qo'shini", D. Imomovning "Zomin manzaralari", Karaxanning tog' manzalarida yangicha talkinga, yangilik darajasini anglash mumkin.

Kompozitsiyaning asosiy qonuniyatidan hisoblanadigan kontrastlar qonuni bo'lib, u asarning ta'sir kuchini va ifodaviyligini oshiradi. Mumtoz sanatkorlar tasviriy san'at ifodaviyligida kontrastga katta ahamiyat berganlar Leonardo da Vinchi "Rangtasvir haqida risolasida o'lchamlar kontrasti haqida (kattani kichik, yo'g'onni ingichka bilan), xarakterlar kontrasti, faktura va ashyolar kontrasti xakida gapiradi:



Mikelandjelo uz ijodida jism va yuza kontrastiga katta etibor beradi. Uning asarlarida asar yuzasi yirik (tizimli jussalar bilan to'ldirilib, mahobatlik namoyon etadi)

Kontrastlar orkali san'at asarida ifodalilik kuchi ortadi. Kontrastlar orqali yorug'ning soyaga munosabatida jozibalilik paydo buladi. Yorug' soya "o'yini" bo'lmagan joyda shakl ifodaliligi yuzaga kelmaydi. Portretda ton (tus) lar kontrasti katta ahamiyat kasb etadi. Quyuq to'q muhitda yorqin jussa o'ziga xos ifoda tashkil etgan.

Ushbu uslubdan 19 asr oxirlariga qadar ko'plab rassomlar foydalanganlar 20 asrga kelib rang tasvir yangicha kontrastni kashf etdi. Yorqin fonda to'q jussa siluet ifodaligiga yangi ko'rinishini yaratadi.

Tasviriy san'atda kontrast tus yani tonda balki ranglar kontrastida ham ifodaviylikning muhim ko'rinishini hosil kiladi. Bu issiq va sovuq ranglar kontrasti-ranglar tabiatan o'ziga kontrast tashkil etuvchi ranglarga bo'lgan nisbiy munosabati orqali rangtasvirlilik paydo bo'ladi.

Tabiiy ranglar o'zaro kontrasti yashilning qizilga sariqning moviy rangga, oqning qoraga nisbatlari asardagi ifodasi o'ziga xos joziba yaratadi.

3.Inog'omovning "Nonushtaga" asarida konstruktiv g'oya asar chekkasidagi yirik ayol jussasi va bug'doy garami ikkinchi chekkadagi ish qilayottan insonlar jussasi muvozanatga to'g'ri topilganligi asar yechimi muvaffakiyatini belgilaydi.

Maxobatli rangtasvirda xam ifodaviylik kontrastlar munosabati orqali amalga oshiriladi. J.Umarbekovning "A.Temurning elchilarni kutib olinishi" asaridagi ifodalilik aynan shu prinsiplarga asos bo'lgan. Bu yerda A. Temur va tarixchi (Ali Yazdiy) jussalari va ma'lum bir masofa uzoqligidagi yirik tasvirlanganligi maxobatlik xissiyotini tug'diradi. Shunday qilib maxobatli rangtasvirida asar fazosi old qismidagi yirik jussalarning orqalardagisiga nisbati kontrasti paydo buladi.

Tasviriy sanatda yana bir kontrast, g'oyalar to'qnashuvi kontrasti ajoyib rus rassomi N.N.Gening "Sirli oqshom" asarida asar qahramoni payg'ambar Iso uning raqibi Iuda orasidagi g'oyalar kurashi xam tasviriy vositalar-Isoning fayzli siymosi va Iudaning



g'oyalaridan chekinmas irodasi kontrasti, tasviriy vositalar-ijobiy kaxramonlar yorokin tasvirlari va udaning silueti (kulankali) tasviri berilgan.

Demak, kompozitsiyada kontrast (muqoyasa)ning o'рни ko'p qirrali, u kompozitsiyaning har bir elementlariga tegishli. Kompozitsiyaning barcha vositalarini g'oyaviy mazmunga bog'likligi o'z navbatida rassomni tasvirlanayotgan voqe'likni yaxlit idrok etishga, shakl ifodalarini g'oyaviy mazmunga bo'ysundirishni talab etadi. Badiiy asar bu rassomning tasvirlanayotgan voqe'likka bo'lgan munosabati uning ifodasi rassom asarida o'z urnini topgan taqdirdagina oddiy tasvirdan "badiiy asar darajasiga ko'tariladi.

Bu qonuniyat fazo, rang, ton va shakl plastika, va harakat yoki holat simmetriya yoki assimetriya munosibatlari o'zaro garmoniyasini talab etadi. Asar ta'sirchanligiga kompozitsiyaning barcha ifoda vositalari garmonik yechimi orqali erishiladi.

XULOSA. Kompozitsiya barcha qonuniyatlari va vositalarini asar g'oyasiga bo'ysundirilishi, rassomning ongi va mahorati yuksak ekanligini belgilaydi. Rassomning dunyokarashi asarlarida aksini topar ekan, uning manaviyatini boyitish, bunyodkorlikka yo'naltirilgan asarlar yaratish maqsadlarini qo'ymoqlari rassomning bilim va dunyo, hamda jamiyatga bulgan munosabati nafaqat tafakkurini, balki hissiyotlarini ham belgilab bergandagina uning asarlari to'laqonli bo'ladi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. F.X.Mirzayeva. Rangtasvirda kompozitsiyaning ahamiyati. 2023 y. №5.
2. S.F.Abdirasilov. Dastgohli rangtasvir /o'quv qo'llanma/. 2007, 12-b.
3. Э.Делакруа. Мысли об искусстве, о знаменитых художниках. М.: Академия Художеств СССР. 1960 г.
4. Б.Виппер. Введение в историческое изучение искусства. М.: Изобразительное искусство. 1985 г.